

**Alisher Navoiy devonlarining XIX asrda kitobat qilingan qo'lyozma
nusxalari**

(Davlat adabiyot muzeyi fondi asosida)

Mahmudova Mahliyo Ma'rufjon qizi

Tel: +998933169397

Email: mahliyoxon1004@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyining qo'lyozmalar katalogida Alisher Navoiyga tegishli qo'lyozma asarlar orasidan XIX asrga oid devonlari jamlangan qo'lyozma nusxalar haqida ma'lumot berib o'tilgan. Maqolada muzey fondidagi XIX asrga tegishli yigirma yetti qo'lyozma ajratib olinganligi va ularning qisqacha tavsifi, ba'zi kamchiliklari va o'ziga xususiyatlari haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: devon, qo'lyozma, inventar raqam, fond, nusxa, qisqa tavsif, to'liq tavsif, kotib, sahhof.

**Рукописные копии диванов Алишера Навои, написанные в XIX
веке.**

(По материалам Государственного литературного музея)

Махмудова Махлиё Маъруфжон кизи

Тел: +998933169397

Email: mahliyoxon1004@gmail.com

Аннотация. В данной статье даны краткие сведения о рукописных копиях диванов XIX века среди рукописных произведений Алишера Навои в каталоге рукописей Государственного литературного музея имени Алишера Навои Академии наук Республики Узбекистан. В статье из музейного фонда отобрано двадцать семь рукописей XIX века и дана информация об их кратком описании, некоторых недостатках и характеристиках.

Ключевые слова: деван, рукопись, инвентарный номер, фонд, экземпляр, краткое описание, полное описание, писец, страница.

**Handwritten copies of Alisher Navoi's divans written in the 19th century
(Based on the fund of the State Literary Museum)**

Mahmudova Mahliyo Ma'rufjon qizi

Tel: +998933169397

Email: mahliyoxon1004@gmail.com

Abstract. In this article, brief information is given about the manuscript copies of the 19th century divans among the manuscript works belonging to Alisher Navoi in the catalog of manuscripts of the Alisher Navoi State Literature Museum of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. In the article, twenty-seven manuscripts belonging to the 19th century were selected from the museum fund, and information was given about their brief description, some of their shortcomings, and their characteristics.

Key words: divan, manuscript, inventory number, fund, copy, short description, full description, secretary, bookbinder

Kirish

Mumtoz adabiyotning lirik janrlarida sermahsul ijod qilgan Alisher Navoiy turkiy adabiyotda eng ko'p devon tuzgan shoirdir. Alisher Navoiyning she'riy asarlari o'z davridan boshlab zaamondoshlari tomonidan yuqori baholangan. O'z zamonasidagi qardosh millatlar va keying davr shoirlari ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Shoirning muxlislari tomonidan tuzilgan "Ilk devon", "Oqquyunli muxlislar devoni", "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoy'e ul-vasat", "Favoyid ul-kibar" hamda forsiy ildagi "Devoni Foni" nomli jami to'qqizta devoni misli ko'rilmagan sermahsul ijod namunalari hisoblanadi. Sharq adabiyotining devonchilik tartibini takomilga yetkazgan Alisher Navoiyning badiiy mahurat qirralarini, yuksak salohiyatini o'zida namoyon etadi.

Shoir asarlari har davrda o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi uchun asarlarining qo'lyozma nusxalari ko'plab davlatlarning fondlarida saqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi shoir qalamiga mansub asarlarning noyob qo'lyozma nusxalari saqlanadigan

fondlardan biridir. Tadqiqotimiz uchun ushbu muzey tarkibidagi qo'lyozmalar saqlanadigan fondagi XIX asrga tegishli devonlar qo'lyozmalarini¹ tanlab oldik.

Tadqiqot usullari

XIX asrga tegishli Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarining qisqa va to'liq tavsifini yozishda fond katalogini diqqat bilan o'rganib, undan yigirma yetti qo'lyozmani ajratib oldik. Matnshunoslik nuqtai nazaridan ularning umumiy va xususiy belgilari o'rganildi.

Natija

Tadqiqotimiz natijasida shu ma'lum bo'ldiki, fondagi qo'lyozmalar orasida shoirning XIX asrga tegishli bo'lgan "Xazoyin ul-maoniy" devoning yetti nusxasi, "Ilk devon" ning bir nusxasi, "G'aroyib us-sig'ar" ning to'rt nusxasi, "Badoye' ul-vasat" ning ikki nusxasi hamda "Navoiy devoni (Terma devon)" nomli devonlarining o'n ikki nusxalari borligi aniqlandi.

Muhokama

Tadqiqotimiz ostiga olganlarimiz Alisher Navoiy devonlarining XIX asrga tegishli nusxalarining Toshkent Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanuvchi inventar raqamlari quyidagicha: № 163, 344, 152, 143, 164, 154, 169, 150/II, 381/IV, 802, 264, 70, 185, 5, 111, 141, 193, 226, 227, 34, 232, 228, 25/I, 400/II, 284/I, 574, 4. Ushbu qo'lyozmalar shartli ravishda guruhlariga ajratilgan bo'lib, "Xazoyin ul-maoniy", "Ilk devon", "G'aroyib us-sig'ar", "Badoye' ul-vasat", "Navoiy devoni (terma devon)" larning nusxalari alohida o'rganildi. Quyida ularning tavsifi keltiriladi².

1. "Xazoyin ul-maoniy" devonining fondagi XIX asrga oid nusxalari quyidagi inventar raqamli qo'lyozmalar: № 163, 152, 143, 164, 169, 154, 150/II.

"Xazoyin ul-maoniy" devoni to'rt alohida devondan iborat. "G'aroyib us-sig'ar" – "Bolalik g'aroyibliklari", "Navodir ush-shabob" – "Yoshlik nodirliklari", "Badoye' ul-vasat" – "O'rta yosh go'zalliklari", "Favoyid ul-kibar" – "Keksalik foydalari". Bu to'rt devonda 3132 ta she'r bor.

163 inventar raqamli qo'lyozma tarkibida "Xazoyin ul-maoniy" dan tashqari Navoiyning boshqa asarlari, jumladan, "Badoye' ul-bidoya" ga debocha, "Xamsa", "Mahbub ul-qulub" ham o'rin olgan. Oddiy nusxa bo'lib, yupqa oq Qo'qon qog'oziga matn qora, sarlavhalar qizil siyohda ko'chirilgan.

152 inventar raqamli qo'lyozma "Xazoyin ul-maoniy" qo'lyozma nusxalari ichida matnning to'liqligi bilan ajralib turadi. To'rttala devon ushbu qo'lyozmada

¹ Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalari. № 163, 344, 152, 143, 164, 154, 169, 150/II, 381/IV, 802, 264, 70, 185, 5, 111, 141, 193, 226, 227, 34, 232, 228, 25/I, 400/II, 284/I, 574, 4. Toshkent davlat adabiyot muzeyi fondi

² Tavsifni keltirishda ba'zi ma'lumotlar Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining qo'lyozmalar fondi katalogidan olindi.

alohida joylashtirilgan. Ularning matni to'la. Qo'lyozma "Badoye ul-bidoya" so'zboshisi bilan boshlanadi (3b-7b varaq). Qo'qon qog'ozi, oqish rangli. Qora tush bilan oddiy nasta'liq xatida bitilgan.

143, 164, 154 inventar raqimli qo'lyozmalar ham to'rt devondan iborat bo'lib, alohida tartib bilan joylashtirilgan to'liq nusxalardir. 164 inventar raqamli qo'lyozmadan boshqa qo'lyozmalar "Badoye' ul-bidoya"ga yozilgan debocha bilan boshlanadi.

154 inventar raqamli qo'lyozmada "Xazoyin ul-maoniy" 9b-38a sahifalarda joylashgan. Qo'lyozmada Navoiy istefoda etgan arabiy so'zlarning o'zbek tilidagi muqobili-lug'ati keltirilgan.

150/II inventar raqamli qo'lyozma Lutfiyning devoni bilan birga ko'chirilgan. Lutfiy she'rlari 1-17 sahifalardan joy olgan. "Xazoyin ul-maoniy" esa 21-253 sahifalarni egallagan.

2. 344 inventar raqamli qo'lyozma Navoiyning "Ilk devon" i qo'lyozmalaridan biri. Qo'lyozmada matn sharq qog'oziga qora tush bilan nasta'liq xatida ikki ustun qilib ko'chirilgan. Muqovasi yashil rangdagi qattiq muqova bo'lib, uchta tamg'asi bor. Sahhofning ismi yozilgan: Mirzo Omon Sattor. Qo'lyozmaning ko'chirilgan vaqti 1301 hijriy, 1883 milodiy yilga to'g'ri keladi.

3. Fondda Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" lirik kulliyotining birinchi devoni bo'lgan "G'aroyib us-sig'ar" devonining XIX asrga oid to'rtta nusxasi saqlanadi. Ular № 381/IV, 802, 264, 70 inventar raqamlari ostidagi qo'lyozmalardir.

381/IV inventar raqamli qo'lyozma terma devon singari tanlab olingan she'rlardan iborat nusxa. She'rlar Qo'qon qog'ozig qora siyoh bilan oddiy nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lib, ikki qator qilib joylashtirilgan.

"G'aroyib us-sig'ar" ning XIX asrga oid qo'lyozma nusxalari ichida 26 inventar raqamli qo'lyozma xatining chiroyliligi ajralib turadi. Qo'lyozmada matn Samarqand qog'oziga go'zal nasta'liq xatida qora siyoh bilan ikki ustun qilib ko'chirilgan bo'lib, yashil, ko'k va tilla rangdagi jadval ichiga olingan. Nihoyatda nafis ishlangan unvonga ega. Kotibi Pir Muhammad Shayx Tohir Tabriziydir. Muqovasida "Sof" surasining 13-oyatidan bir jumla yozilgan. "G'aroyib us-sig'ar"ning XIX asrga tegishli qolgan nusxalari Qo'qon qog'oziga nasta'liq, ba'zan shikasta nasta'liq xatida ko'chirilgan.

4. 185 inventar raqamli qo'lyozma "Badoye' ul-vasat" devoning mukammal nusxalaridan biri hisoblanadi. Nafis, silliq, oqish rangli Qo'qon qog'ozidan foydalanilgan. Matn go'zal nasta'liq xatida qora siyoh bilan ikki ustun qilib ko'chirilgan. Ustunlar oltin suvi yuritilgan ramkalar bilan o'ralgan. Ayrim qo'sh sahifalar zangor ramkaga olingan. Qo'lyozma xattot Qurbon Muhammad

Domullo binni Erkaboy Toshqandiy tomonidan Toshkentda hijriy 1294, milodiy 1877 yilda ko'chirib yozilgan.

5. "Navoiy devoni (terma devon)" nomli XIX asrga oid bo'lgan qo'lyozmalar soni o'n ikkitani tashkil qilib, quyidagi inventar raqamlar ostidagi saqlanadi: № 111, 141, 193, 226, 227, 34, 232, 228, 25/I, 400/II, 284/I, 574. Bular ichida 111 inventar raqamli qo'lyozma devonning noyob nusxalaridan biridir. U "Badoye' ul-bidoya"ga yozilgan debocha bilan boshlanadi. Matn novvot rangli qalin Sharq qog'oziga qora siyoh bilan yirik, chiroyli nasta'liq xatida bitilgan.

141, 193, 226, 227, 34, 70, 574 inventar raqamli qo'lyozmalar oddiy nusxalar bo'lib, aksari oq Qo'qon qog'oziga, ba'zilari Toshkent qog'oziga ko'chirib yozilgan.

25/I inventar raqamli qo'lyozma yuksak husnixat va kitobat san'ati namunasi sifatida alohida qimmatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Qo'lyozma "Mahbub ul-qulub" bilan birga ko'chirilgan bo'lib, oppoq Qo'qon qog'ozidan foydalanilgan. Matn qora siyoh bilan "shikasta" uslubida diakritik belgilersiz ko'chirilgan.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy asarlarining qo'lyozmalari hali juda ko'p izlanishlarga, tadqiqotlarga muhtoj. Ushbu qo'lyozmada shoir devonlarining XIX asrga oid qo'lyozma nusxalari matnshunoslik nuqtai nazaridan tavsif qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Mukammalmasarlar to'plami (nashrga tayyorlovchilar: M.Hamidova, T.Ahmedov), - T.: "Fan" nashriyoti, 1193 y
2. Hakimov M. Navoiy asarlari qo'lyozmalari tavsifi, O'zbekiston SSR., T.: "Fan", 1983 y
3. Erkinov A. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" si va uning protodevoni masalasi (Mashhadiy qo'lyozmasi asosida, 898/1492-93 yil)// "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent: Tamaddun, 2017
4. Murodova M. Alisher Navoiy lirikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. // International scientific research conference. Belarus: 2019
5. Tojiboyeva O. Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoni manbalari, matniy tadqiq tarixi// Golden scripts. Oltin bitiglar. 2023, Vol.4
6. Hayitmetov A. Navoiy lirikasiro T.: "O'zbekiston", 2015